

**O'SPIRINLIK DAVRINING IJTIMIOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI****Yusupova Gulbahor**

*O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish
va psixologik-pedagogik respublika
tashxis markazi psixolog-metodisti*

O'spirinlik - betakrorlik hislati, o'ziga xosligi boshqa odamlardan keskin farqlanishi bilan harakterlanadi. U ijtimoiy hayotda bajarayotgan rollarning ko'lami kengayadi, lekin barchasini egallash imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Shuningdek rollarda o'zini sinab ko'rish bilan cheklanadi. Vaqtni yangicha his qilish, psixoseksual qiziqish, patogen jarayonlarni namoyon bo'lishi xosdir.³⁷

Hayotdagi bu o'zgarishlar ilk o'spirinlik shaxsiga, uni o'zini anglashiga ta'sir ko'rsatadi. O'smirlardan farqli o'laroq ilk o'spirinlar katta hayotni tasavvur etmaydilar, balki undan idrok etadilar. Uning mustaqilligi ortishi bilan bir qatorda kattalarga munosabatlari ham o'zgaradi. Kattalar o'smirlarga ko'proq bola deb qarasalar, ilk o'spirin yoshdagilarga katta odamdek munosobabatda bo'ladilar.

Ilk o'spirinlik yoshi davriga 15-18 yoshlardagilar (umumiy o'rta ta'lim, akademik lisey, kasb-hunar kolleji o'quvchilari) kiradilar. Bu davrda o'quvchi jismonan baquvvat, o'qishni tugatgach, mustaqil mehnat qila oladigan, oliy maktabda o'zini sinab ko'radigan imkoniyatga ega bo'ladi, ma'naviy jihatdan yetuklikka erishadi. Ilk o'spirin 16 yoshida mamlakat fuqarosi va 18 yoshida esa saylash hamda saylanish huquqiga ega bo'ladi. Bularning barchasi ilk o'spiringa fuqaro sifatida ijtimoiy jihatdan voyaga yetishi, hayotda o'z o'mini topishi, o'z taqdirini o'zi hal qilishi va yetuk shaxs sifatida ma'naviy o'sishi uchun jamiki shart-sharoitlarni yaratadi.

Keyingi vaqtlarda psixologlar qiziqarli faktni aniqladilar. Birinchidan, yuqori sinfdagi o'quvchi qizlar, o'smir qizlar singari, o'g'il bolalar va o'spirinlarga qaraganda kattalarning ta'siriga ko'proq berilishiga moyildirlar.

Mustaqil mehnat faoliyatiga o'tish istiqbolning ta'siri ostida katta maktab yoshidagilar uchun harakterli bo'lgan kelajak maqsadlar sari yo'nalish tarkib topadi. Katta maktab yoshi hayotda o'z-o'zini aniqlab olish yoshi bo'lib, bu vaqtda o'quvchi o'zining mehnatdagi iste'dodini jiddiy ravishda izlay boshlaydi, unda o'zining kelajakdagi kasbini belgilab olish intilishi paydo bo'ladi.

Agarda o'smirlikda asosiy faoliyat muomala, shaxslararo munosabat bo'lib hisoblansa, ilk o'spirinlik davriga kelib, undan oldingi ontogenetik bosqichdan farqli o'laroq o'qishga nisbatan qiziqish jonlana boradi, chunki bu davrda ta'lim sub'yektlari oldida akademik lisey hamda kasb-hunar kollejlarni bitirishdek mas'uliyat yotganligi harakatlantiruvchi kuch funksiyasini bajaradi. Bilish va kognitiv jarayonlarning barqarorligi o'sganligi, takomillashganligi, kasbiy malakalar shakllanganligi o'quv

³⁷ Ф.М.Иўлдошева. Ёш давлари психологияси. Маърузалар матни. Термиз: 2013, 27-бет



jarayonining sifat va miqdor jihatdan o'zgarganligidan dalolat beradi. O'zgarishlarning miqdoriy jihatdan ko'rinishlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Yaqqol (konkret) va mavhum (abstrakt) ilmiy tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar.

2. Kognitiv faoliyatning jarayonlari, operatsiyalari rivojlanganligi: taqqoslash, qiyoslash, umumlashtirish, tasniflash va hokazo.

3. Esda olib qolishning rasional usullarining mavjudligi (so'z-mantiq xotirasiga asoslangan holda).

4. Muammoli vaziyatlar va ularning yechimini topish imkoniyatlari.

5. Ijodiylik (kreatsiya) usullari vujudga kelayotganligi.

6. O'zini o'zi baholash va nazorat qilish uquvi shakllanayotganligi.³⁸ O'spirin – yoshlar kasb egallashda kasb–hunar va mutaxassislikning ijtimoiy nufuziga alohida e'tibor qaratadi. Natijada kasblar o'rtasida keskin tafovutlashuv kelib chiqadi. Aslida har bir kasb–hunar va mutaxassislikning ijtimoiy ahamiyati mavjud. Etikdo'z yoki tikuvchining jamiyatdagi o'mi hisobchi yoki sotuvchikidan kam emas. Aytaylik, no'noqroq tadbirkordan iqtidorli tikuvchi ko'proq daromad topishi mumkin.

Bugungi o'spirinlariga hayotga nisbatan xushyor, aqliy – amaliy qarash, yorqinlik va mustaqillik xosdir. Maktabni tugallash vaqtiga kelib juda ko'p o'smirlar ahloqiy jihatdan shakllangan va ma'lum ahloq normalari kat'iylashgan xususiyatlarga ega bo'ladilar. O'spirinlarda ahloqiy dunyoqarash bilan bir qatorda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy, diniy va boshqa sohalar bo'yicha ma'lum bir qarashlar vujudga keladi. Juda ko'p yillardan beri o'spirinlarni yaxshilik va yomonlik, xaqiqat va noqonuniylik, ahloqiylik va ahloqsizlik masalalari tashvishlantirib keladi. Hozirgi davr o'spirinlari xar bir narsaga ishonuvchan yoki salbiy munosabatda bo'lmay, balki hayotga real, aqliy, amaliy qaraydigan, ko'prok yorqin va mustaqil bo'lishga intiluvchi yoshlardir.

Kasb to'g'risidagi tassavvurlar bilan real imkoniyatning muvofiq kelishi asosiy shartlardan biridir. Agarda imkoniyat real shart – sharoitga mos kelsa va albatta o'spirin bu jarayonda mustaqil fikr yuritishini namoyon eta olsa ijobiy natijaga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'oziyev Ergash. "Umumiy psixologiya" O'zMU O'kuv metodik Kengashi ning 2002 yil. Majlis bilan nashrga tavsiya etilgan. «Universitet» nashriyoti, 2002
2. G'oziyev Ergash. O'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish. Toshkent, 2002.
3. G'oziyev Ergash. Ontogenez psixologiyasi. Nazariy-eksperiment tahlil. Monografiya. "Noshir". Toshkent: 2010

³⁸ Фозиев Эргаш. Онтогенез психологияси. Назарий-эксперимент таҳлил. Монография. "Ношир". Тошкент: 2010, 182-бет



4. Ivanov P.I., Zufarova M. «Umumiy psixologiya» T., 2008 yil
5. Ilin Yevgeniy Pavlovich "Psixologiya, tvorchestva, kreativnosti, odarennosti". 2011
6. Ishmuhammedov R., Abdulqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovasion texnologiyalar. Toshkent, 2008